



1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan

Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2025-yil 29-aprel, seshanba,
50 (24.076)-son

O'zbek xalq
maqoli

El
kuyunganda,
kuyungan,
suyunganda,
suyungan -
botir

Zarafshon



www.zarnews.uz



https://www.facebook.com/zarnews.uz



@zarnews_uz



https://twitter.com/zarnews_uz

Sog'lom turmush tarzi

Faqat shaxsning salomatligiga emas, mamlakat iqtisodiyotiga ham ta'sir ko'rsatadi

28-aprel kuni xalq deputatlari viloyat Kengashining o'n birinchi sessiyasi o'tkazildi.

Kengash raisi Shuhrat Negmatov boshqargan sessiya ishida Oliy Majlis Qonunchilik palatasining fan, ta'lim, madaniyat, sport va yoshlar masalalari qo'mitasi raisi o'rinbosari Odiljon Iminov, viloyat hokimi o'rinbosari H.To'xtayev ishtirok etdi.



Kun tartibiga muvofiq, dastlab aholi o'rta-sida sog'lom turmush tarzini ommalashtirish, jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi boshlig'i Suxrob Zayniyevning hisoboti va viloyat sport boshqarmasi boshlig'i vazifasini bajaruvchi Olim Sobirovning axboroti tingandi.

– Sog'lom ovqatlanish, faol harakatli turmush va badantarbiya, kun tartibini oqilona tashkil qilish, shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya etish, zararli odatlardan tiyilish, tana vaznini me'yorda ushlab, xonadon va atrof-muhitning tozaligi, borasida bilim va malakaga ega bo'lish sog'lom turmush tarzining asosiy talablari hisoblanadi, – dedi S.Zayniyev. – Viloyatimizdagi tibbiyot muassasalari aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish bilan birga, sog'lom turmush tarzini ham keng targ'ib etib kelmoqda. Joriy yilning o'tgan davrida 606 mingdan ortiq aholi yurak qon-tomir hamda endokrinologik kasalliklar bo'yicha skrining tekshiruvlaridan o'tkazilganda ulardan 14 mingga yaqinida qandli diabet, 24 ming nafarida semizlik, 21,7 ming nafarida qondagi xolesterin yuqoriligi, 32 ming nafarida yuqori arterial bosim, 18 ming nafarida ortiqcha vazn hamda 12,5 ming nafarida yurak qon-tomir kasalliklari aniqlandi. Aholining salomatlik ko'rsatkichlari tahlil etilganda 1-sog'lom guruh 1 million 746 ming (42 foiz) nafarni, 2-tayanch salomatlik guruhi 1 million 274

ming (31 foiz) nafarni, 3-o'rta xavf guruhi 822 ming (20 foiz) nafarni, 4-yuqori xavf guruhi 29 ming (0,7 foiz) nafarni tashkil qildi.

Davlat xizmatchilari o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish va yuqumli bo'lmagan kasalliklar xavf omillarini erta aniqlash maqsadida yaqinda viloyat hokimligi xodimlari va viloyat muassasalari rahbarlari tibbiy ko'rikdan o'tkazildi. 93 nafar xizmatchida antropometrik tekshiruvlar amalga oshirildi, qon bosimi, qonda kislorod porsial bosimi (saturatsiya), qondagi glyukoza miqdori o'lchandi. Afsuski, ko'rik natijasida bir qator rahbarlar salomatligida nuqsonlar va bu sog'lom turmush tarziga amal qilmaslik oqibati ekanligi aniqlandi.

Mazkur masala yuzasidan Qonunchilik palatasi deputati O.Iminov hamda viloyat Kengashi deputatlari o'z fikrlarini bildirib, aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifati va samaradorligini oshirish bilan birga, sog'lom turmush tarzini keng targ'ib etish, jismoniy tarbiya va sportning ommaviyligini oshirish zarurligini ta'kidladilar.

Viloyatda ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish borasida amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan ijtimoiy himoya milliy agentligi viloyat boshqarmasi boshlig'i vazifasini bajaruvchi Sardor Luqmonov hisobot berdi.

Ta'kidlanishicha, bugungi kunda viloyatda ijtimoiy himoyaga muhtoj 12 toifadagi 198 ming nafar shaxs bilan manzilli ish olib borilmoqda

(o'tgan yilning birinchi choragida ijtimoiy himoyaga muhtojlar ro'yxatida 300 ming nafardan ortiq fuqaro bo'lgan). Ularning 81 ming 393 nafarini kam ta'minlangan oilalar vakillari, 110 ming 422 nafarini nogironligi bo'lgan shaxslar, og'ir kasallikka chalinganlar, shuningdek, jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan hamda uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo'lgan bolalar, 1872 nafarini o'zgalar parvarishiga muhtoj bo'lgan yolg'iz yashaydigan hamda yolg'iz keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslar, 1244 nafarini tazyiq va zo'rvonlikka uchragan xotin-qizlar va ularning voyaga yetmagan farzandlari, shuningdek, odam savdosidan jabr ko'rganlar, 1001 nafarini yetim, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan hamda to'liq bo'lmagan oilalardagi bolalar tashkil etadi.

Yilning birinchi choragida nogironligi bo'lgan shaxslarning 3640 nafari reabilitatsiya vositalari va protez ortopediya moslamalari bilan ta'minlangan. 118 nafari to'liq, 449 nafari qisman reabilitatsiya qilingan. 2287 nafarining bandligi ta'minlangan bo'lsa, 611 nafari parasporga jalb qilingan. 12 ming 700 nafar voyaga yetmagan bola ijtimoiy himoyaga olingan.

– Amalga oshirilgan ishlar, ko'rsatilgan ijtimoiy xizmat va yordamlar natijasida 2025-yil 1-aprel holatida viloyatimizda nafaqa oluvchi oilalar soni 81 ming 393 tani (7,8 foiz) tashkil etdi, – dedi S.Luqmonov. – O'tgan yili bu raqam 189 ming 791 ta (18 foiz) bo'lgan. Nafaqa oluvchilarning kamayishi natijasida 68,7 milliard so'm budget mablag'i iqtisod qilindi.

Shundan so'ng viloyatning ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturlari doirasida elektr ta'minoti tizimini yaxshilash borasida amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ Samarqand hududiy filiali rahbari E.Mamasoliyev hisobot berdi. Ammo rahbarning hisobotga yetarli darajada tayyorgarlik ko'rib kelmagani va deputatlarni qiziqtirgan savollarga javob berolmagani sababli hisobot qabul qilinmadi.

Sessiyada viloyatda Olimpiya va Paralimpiya harakati, ixtisoslashtirilgan va ommaviy sportni yangi bosqichga olib chiqish hamda aholi jismoniy faolligini oshirish bo'yicha 2025-2027-yillarda amalga oshiriladigan chora-tadbirlari to'g'risidagi, jamoat ehtiyojlari uchun yer uchastkalarini olib qo'yilishiga va mulkdorlar bilan ochiq muhokama o'tkazishga ruxsat berish to'g'risidagi, viloyat mahalliy budgetining qo'shimcha manbalaridan foydalanish to'g'risidagi va boshqa masalalar ko'rib chiqilib, Kengash qarorlari qabul qilindi.



Tadbirkor homiyligida maktab ta'mirlandi

vrachlik punkti qurildi, yo'l asfalt qilindi

Katta savobli amallardan biri – maktab qurish.

Tasavvur qiling, maktab qursangiz, unda qanchadan-qancha o'quvchi ta'lim-tarbiya oladi. Ertaga ulardan olim, agronom, muhandis, shifokor, o'qituvchi yetishib chiqadi.

Qo'shrabot tumani Chinoq qishlog'ida joylashgan 57-umumiy o'rta ta'lim maktabi 2006-yilda qurilgan bo'lib, ancha ta'mirtalab ahvolga kelgandi. Bugun mazkur maktabda 26 nafar pedagog 160 nafar o'quvchiga ta'lim-tarbiya berib kelmoqda. Quvvati 240 o'rinni bo'lgan mazkur maktab yaqinda "SXF Big Stroy Building" mas'uliyati cheklangan jamiyati qo'shma korxonasi rahbari Zafar To'rayev homiyligida kapital ta'mirdan chiqarildi.

Shuningdek, tadbirkor tomonidan maktabga 2 ta sinfxona, 9x18 o'lchamli sport zal, 20x40 o'lchamli mini stadion, ko'mirxona, hojatxona hamda qorovulxona qurib berildi. Mak-

tab hovuzi ta'mirlandi, maktab atrofi o'raldi, kirish qismiga darvoza o'rnatildi.

Maktab uchun 128 jamlanma stol-stul, o'qituvchilar uchun yumshoq stul, kutubxonaga 10 ta javon va mebel jihozlari, kompyuter xonasiga stol va 18 ta yumshoq kreslo, sport zalga barcha turdagi sport jihozlari va sinf xonalarga 33 dona shkaf keltirildi. Kimyo va biologiya, fizika laboratoriyasi xonalari ham zamonaviy jihozlandi.

Bundan tashqari, tadbirkor tomonidan tumanda yana o'nta xizmat ko'rsatish obyekti, bit-ta qishloq vrachlik punkti qurib berildi. 2,5 kilometrlik yo'l asfaltlandi.

Xurshida ERNAZAROVA.



КАТТАҚЎРҒОН ШАҲРИДА ДРОН ИШЛАБ ЧИҚАРИЛАДИ

Каттақўрғон шаҳри ўзига хос саноат ҳудуди бўлган ва бу ерда аввал хусусийлаштирилган 33 та саноат корхонаси фаолият кўрсатган. Ҳозирда бўш турган саноат корхоналари бинолари бўйича инвесторлар учун қулай, коммуникация тarmoқлари мавжуд, маҳаллий ҳамкорига эга, темирйўл линияси бор бўлган саноат корхоналарида 50 дан ортиқ, умумий қиймати 100 миллион доллардан зиёд инвестициявий лойиҳа таклифлари ишлаб чиқилган. Ҳар бир таклиф хитой, инглиз ва немис тилларига таржима қилиниб, Ўзбекистон элчихоналари орқали Германия, Қувайт, Эрон, Хитой давлатлари тadbirkorлари эътиборига ҳавола этилган.

Ҳозирда шаҳарда 100 мингга яқин аҳоли истиқомат қилаётган бўлса, бошқа туманлардан яна 6 минг гектар ер майдони ва 50 минг аҳоли қўшилиши режалаштирилган. Бу биргина хизматлар соҳаси, хусусан, тиббий хизматлар соҳасини ривожлантиришда қўшимча имкониятлар яратди.

Утган йил Каттақўрғон шаҳридан 66,3 миллион долларлик маҳсулот экспорт қилинган. Ҳудуддаги 19 та экспортёр корхона томонидан 9 давлатга 18 турдаги экспорт таркибида мис, қайта ишланган рангли металллар етакчи бўлган. Қарийб 20 миллион доллар тўғридан тўғри хорижий инвестиция ва кредитлар ўзлаштирилиб, жамоат транспорти хизматини ривожлантириш, полиэтилен қоплар ишлаб чиқариш, кварц қумларини, рангли металлларни қайта ишлаш соҳаларига йўналтирилган. Ҳудудий инвестиция дастурлари доирасида қиймати 18,4 миллион доллар бўлган 33 та инвестиция лойиҳаси асосида 303 та янги иш ўрни яратилган.

– Жорий йилнинг биринчи чорағида 7 та лойиҳа бўйича 164 миллион доллар хорижий инвестиция ва кредитларни ўзлаштириш режалаштирилган эди, – дейди Каттақўрғон шаҳар ҳокимининг ўринбосари Жасур Ҳайитов. – Йилнинг биринчи чорағида белгиланган 10 миллион доллар сарможа жалб этилди. Россия, Хитой, Туркменистон давлатларидан жалб этилган ушбу сарможа чиқиндини қайта ишлаш, вольфрам конларини ўзлаштириш, полипропилен маҳсулотлари ишлаб чиқаришни кенгайтириш лойиҳаларига йўналтирилди. Яқинда Марказий Осиё – Европа иттифоқи саммити доирасида шаҳримизда Ҳиндистон делегацияси билан бизнес форум ўтказилди. Унда тadbirkorларимиз ҳамда Бенгал бизнес кенгаши аъзолари билан 11 та ҳамкорлик алоқаларини ўрнатиш тўғрисида меморандум имзоланди.

Эронлик тadbirkorлар эса шаҳарга қўшилиши режалаштирилган 6 минг гектар ер майдонининг 200 гектарида помидор етиштиришни йўлга қўймоқчи.



Бундан ташқари, жорий йилнинг 15-январида шаҳар ҳокимлиги масъуллари ва тadbirkorлар Хитойнинг Тяньзинг, Хенан, Урумчи, Пекин шаҳарларидаги учрашувларда "Сан Хе авешн" корхонаси билан 20 миллион доллар сарможа асосида қишлоқ хўжалиги мақсадларида фойдаланиш учун дрон ишлаб чиқариш бўйича меморандум имзоланди.

Шаҳарнинг Ингичка қўрғончасида 13 та вольфрам конини ўзлаштириш бўйича 2018 йилда ишлар бошланган. Хитойлик инвесторлар қўрғончадаги 1835 гектар

ер майдонини аукцион савдосида сотиб олиб, 20 миллион доллар сарможа киритди ва бинолар қуриш, марказий ва шимолий конларда бургулаш ишлари бошланди. Хитойнинг Фу Янж провинцияси асосан тошлар ва қурилиш материаллари ишлаб чиқариш бўйича етакчи ҳисобланади. Шу боис улар билан ҳудудимиздаги кварц тошларни қовлаш ва қайта ишлаш бўйича "Фу Ҳанг" МЧЖ ташкил этилганди, бироқ ҳозирча бизда кварц конларини ўзлаштиришда ер тоифасини ўзгартириш муаммо бўлмоқда. Бу лойиҳа амалга ошадиган бўлса, 25 миллион доллар сарможа киритилади ҳамда 100 дан ортиқ янги иш ўрни яратилади ва экспортбон маҳсулот тайёрланади.

Бундан ташқари, жорий йилнинг феврал ойда Қувайт давлати инвесторлари билан тиббиёт соҳасида қиймати 17,5 миллион долларлик 4 та инвестиция лойиҳасини амалга ошириш бўйича музокаралар ўтказилди ва уларни амалга ошириш бўйича қилишувга эришилди.

Албатта, бу каби истиқболли лойиҳаларнинг амалга оширилиши ҳудуд иқтисодини ривожлантириш, бандликни таъминлаш ва аҳоли даромадини оширишга ёрдам беради. Қолаверса, иқтисодийнинг яна бир муҳим тармоғи бўлган экспортнинг кенгайтириш иқтисодий барқарорликка эришишга кўмаклашади. Бу йўналишда жорий йилда Каттақўрғон шаҳридан 75 миллион долларлик маҳсулот экспорт қилиниши режалаштирилган. Йилнинг биринчи чорағида Хитой, Туркия давлатларига қарийб 11 миллион долларлик мис маҳсулотлари экспорт қилинган бўлса, иккинчи чорақдан уларга қўшимча равишда Тожикистон, Қирғиз республикаларига юқори кучланишли саноат трансформаторларини экспорт қилиш бошланади. Биринчи чорақ якунига қўра, 15 миллион доллар экспорт кўрсаткичи билан вилоятдаги энг яхши олти ҳудуддан бири бўлиб турибмиз.

Ҳозирда Ўзбекистоннинг Германиядаги элчихонаси кўмағида қорвачилик, мебелсозлик, полиэтилен маҳсулотлари ишлаб чиқариш йўналишларида фаолият юритаётган тadbirkorларимизнинг Германияга ташири режалаштириляпти. Мазкур ҳаракатлар натижасида янги қоялар, янги лойиҳаларни амалга ошириш имконияти яратилади. Бу эса албатта, иқтисодий фаровонликка хизмат қилади.

Ўқтам ХУДОЙБЕРДИЕВ,
"Зарафшон" муҳбири.



Uy-joy uchun SUBSIDIYA: ASOSIY VA MUHIM JIHATLAR

Asosiy savol, subsidiya uchun ish haqini aniqlashda agar ish haqi belgilangan mezonga yetmasa, farzandning daromadi qoʻshilishi mumkinmi?

Agar ariza beruvchining va uning turmush oʻrtogʻining oʻrtacha oylik daromadlari meʼyordan kam boʻlsa, uning daromadlari hisob-kitobiga turmush qurmagan farzandlarining daromadlari ham kiritilishi mumkin.

Necha ball toʻplash kerak?

Ijtimoiy mezonlar asosida baholangan ariza beruvchi 30 va undan yuqori ball toʻplagan taqdirda, talabgor sifatida tan olinib, kvartira sotib olish yoki yakka tartibdagi uy-joylarni qurish va rekonstruksiya qilish uchun ipoteka krediti boʻyicha subsidiya olishga haqli deb hisoblanadi.

Ariza qaysi holatlarda rad qilinadi?

Quyidagi hollarda ariza beruvchiga subsidiya ajratish rad etiladi:

- taqdim etilgan arizada koʻrsatilgan maʼlumotlar ijtimoiy mezonlarga mos kelmaganda;

- taqdim etilgan maʼlumotlar notoʻgʻri yoki soxta boʻlganda;

- ilgari shahar va qishloq joylarda arzon uy-joy qurish dasturlari doirasida imtiyozli ipoteka kreditlaridan foydalangan holda kvartira yoki yakka tartibdagi uy-joy hamda subsidiya olgan (avval olingan uy-joy boshqa shaxsga begonalashtirib yuborilgan taqdirda ham) oila aʼzolari (eri, xotini) takroriy murojaat etganda;

- joriy yilda hudud uchun ajratiladigan subsidiya soni tugaganda;

- ariza beruvchi va/yoki oilaning oʻrtacha oylik daromadi;

Qoraqalpogʻiston Respublikasi va viloyatlarda mehnatga haq toʻlashning eng kam miqdorining 2,7 baravaridan kam va 8 baravaridan yuqori.

Talabgorlar soni oshib ketsa...

Subsidiya ajratiladigan talabgorlar soni Qoraqalpogʻiston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahriga ajratilgan subsidiya parametrlaridan oshib ketgan taqdirda, kalendar tartibga koʻra hujjatlarni birinchi boʻlib topshirgan ariza beruvchi talabgor sifatida tan olinadi. Yaʼni, hujjatni vaqtliroq topshirish ham muhim rol oʻynaydi.

Alimentni vaqtida toʻlamagani uchun jarima

Oila kodeksining 142-moddasiga koʻra, aliment toʻlash toʻgʻrisidagi kelishuvga muvofiq, aliment toʻlashi shart boʻlgan shaxsning aybi bilan qarz vujudga kelgan boʻlsa, aybdor shaxs ushbu kelishuvda belgilangan tartibda javobgar boʻladi.

Sudning hal qiluv qaroriga koʻra, aliment toʻlashi shart boʻlgan shaxsning aybi bilan qarz vujudga kelgan boʻlsa, aybdor shaxs kechiktirilgan har bir kun uchun toʻlanmay qolgan aliment summasining oʻndan bir foizi miqdorida aliment oluvchiga neustoyka toʻlaydi.

Aliment oluvchi aliment oʻz vaqtida toʻlanmaganligida, aybdor aliment toʻlashi shart boʻlgan shaxsdan aliment toʻlash majburiyatlarini oʻz vaqtida bajarmaganlik oqibatida yetkazilgan barcha zararlarning neustoyka bilan qoplanmagan qismini undirishga ham haqli.



GRANT Oliy oʻquv yurtida ga oʻqitmoqchimisiz?

Vazirlar Mahkamasining joriy yil 10-martdagi 149-sonli qarori bilan Oliy taʼlim tashkilotlarida talabalarga grantlarni taqdim etish va qayta taqsimlash tartibi toʻgʻrisidagi nizom tasdiqlandi.

Nizom bilan grantlarni ikkinchi va undan keyingi kurs talabarlari oʻrtasida qayta taqsimlash tartibi joriy etilmoqda. Xususan, endi grantlar har oʻquv yili yakunida bakalavriat yoʻnalishi, taʼlim tili va kurslar boʻyicha alohida qayta taqsimlanadi. Bu jarayon oliy taʼlim tashkiloti rektori tomonidan boshqariladi va toʻliq hamda toʻliq boʻlmagan grantlar ajratiladi. Grantlarni qayta taqsimlashda talabalarining akademik koʻrsatkichlari (GPA) va ijtimoiy faolligi asosiy mezon sifatida olinadi. Bu esa talabalardan nafaqat oʻqishda, balki jamoat ishlarida ham faollikni talab etadi.

Toʻliq taʼlim granti oʻquv xarajatlarini davlat budjetidan toʻliq qoplaydi va talabalar umumiy tartibdagi stipendiya bilan taʼminlanadi.

Toʻliq boʻlmagan taʼlim granti toʻlov-kontrakt summasining 50 foizini qoplaydi va bunda umumiy tartibdagi stipendiya berilmaydi.

Qoʻshimcha davlat granti esa GPA koʻrsatkichi 4 va undan yuqori boʻlgan, ijtimoiy himoyaga muhtoj talabalarga navbatdagi oʻquv yili uchun taqdim etiladi. Bunda oʻqitish xarajati davlat budjetidan toʻliq qoplab beriladi va talaba umumiy tartibdagi stipendiya bilan taʼminlanadi.



Oliy taʼlim tashkiloti granti moliyaviy mustaqillikka ega boʻlgan muassalar tomonidan GPA 3,3 dan 4 gacha boʻlgan talabalarga beriladi, bu esa toʻlov-kontrakt summasining 20-80 foizini qoplash imkonini beradi.

Umumiy holatda grantlarga daʼvogarlik qilish uchun talabalar GPA koʻrsatkichi 3,5 va undan yuqori boʻlishi kerak. Akademik muvaffaqiyat 80 ballik mezonda, ijtimoiy faollik esa 20 ballik mezonda baholanadi. Ijtimoiy faollikni baholashda kitobxonlik madaniyati, "5 muhim tashabbus" doirasidagi tadbirlarda ishtirok, xalqaro va respublika miqyosidagi tanlovlarda qatnashish, volontyorlik va jamoat ishlaridagi faollik kabi bir qator mezonlar qoʻllaniladi.

Muhim jihat: talabalarining akademik oʻzlashtirish koʻrsatkichi hamda ijtimoiy faollikni aniqlash boʻyicha komissiyaga hujjat topshirish muddatlari oliy taʼlim tashkiloti tomonidan belgilanadi. Biroq har yili 1-avgustga qadar talabgorni baholash natijalari maxsus komissiyaga taqdim etilishi hamda yakuniy natijalar, yaʼni taʼlim grantini oluvchi talabalar roʻyxati oliy taʼlim tashkilotining rasmiy veb-saytida har yili 25-avgustga qadar eʼlon qilinishi lozim.

Talaba-xodimga koʻproq taʼtil beriladi

Davlat tashkilotida ishlayman. Universitetda sirtqi taʼlim shaklidagi oʻqishim boshlanganda ish haqi saqlangan holda taʼtil soʻrasam boʻladimi?

- Aslida javob aniq, sizga oʻrtacha ish haqi saqlangan holda taʼtil beriladi. Taʼkidlash kerakki, amaldagi mehnat kodeksiga koʻra, oliy taʼlim muassasalarida kechki taʼlim shaklida oʻqiyotgan birinchi va ikkinchi kurs talabalariga — kamida 20 kalendar kun, oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi tashkilotlarida — kamida 10 kalendar kun, oliy va oʻrta maxsus taʼlim

tashkilotlarida sirtqi taʼlim shaklida oʻqiyotganlarga esa — kamida 30 kun, kechki taʼlim shaklida uchinchi va undan yuqori kurslarda oʻqiyotganlarga — kamida 30 kalendar kun, oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi tashkilotlarida — kamida 20 kalendar kun, oliy va oʻrta maxsus taʼlim, kasb hunar taʼlimi tashkilotlarida sirtqi taʼlim shaklida oʻqiyotganlarga esa kamida 40 kalendar kun muddatga oʻrtacha ish haqi saqlangan holda har yili taʼtil berilishi belgilangan.



Lekin mazkur sohada-gi qonunchilik yoki boshqa huquqiy hujjatlarda ushbu modaning birinchi qismida nazarda tutilganiga nisbatan davomiyli-gi koʻproq boʻlgan oʻquv taʼtillari nazarda tutilishi mumkin. Yodda tuting, ishni oʻqish bilan birga olib borayotgan xodimlarga navbatdagi mehnat taʼtillari ular oʻquv taʼtillaridan foydalanganligidan qatʼi nazar beriladi.

Vaqtincha yashash manzili boʻyicha subsidiyaga uy olish mumkinmi?

— Vaqtincha Toshkent shahrida yashayapman. Shu manzil boʻyicha subsidiya asosida uy olsam boʻladimi?

— Mumkin emas. Qonunchilikka muvofiq, subsidiya fuqaro roʻyxatga olingan doimiy yashash joyidagi hudud doirasida tuman (shahar) kesimida qayta taqsimlanmagan holda fuqarolarning talablaridan kelib chiqib ajratiladi.



Qoraqalpogʻiston Respublikasi va viloyatlarga ajratilgan subsidiya ushbu hududdagi aholi tomonidan belgilangan taqsimot doirasida tuman yoki shahardan olinishi mumkin. Toshkent shahrida doimiy roʻyxatga olingan fuqaro esa subsidiya dasturi doirasida Toshkent viloyatida qurilgan uy-joylarni ipoteka krediti asosida sotib olishga haqli. Bunda ipoteka krediti Toshkent viloyati uchun belgilangan ipoteka kreditining eng koʻp miqdori doirasida ajratiladi hamda boshlangʻich badal boʻyicha subsidiya toʻlovi uy-joy joylashgan tuman (shahar) moliya boʻlimi tomonidan amalga oshiriladi.

Endilikda ariza beruvchining xohishiga koʻra, uning daromadlari hisob-kitobiga yaqin qarindoshlarining ham daromadlarini kiritishi mumkin boʻladi.

Davron ASHUROV, viloyat adliya boshqarmasi davlat xizmatlari koʻrsatilishi ustidan nazorat qilish shubasi boshligʻi.

Ham dekret, ham taʼtil pulini olish mumkinmi?

— 2020-yilning sentabr oyidan boshlab institutda oʻqituvchi lavozimida ishlayman. Hozirda 30 haftalik homiladorman. Dekret taʼtiliga chiqish tartibi qanday boʻladi? Har yili iyul oyida mehnat taʼtiliga chiqamiz va "otpusknoy" olamiz. Dekret taʼtili pulidan tashqari, mehnat taʼtili puli ham beriladimi?

— Mehnat kodeksining 143-moddasiga muvofiq, mehnat taʼtili beriladigan ish yili mehnat shartnomasiga binoan ish boshlangan kundan eʼtiboran hisoblanadi. Mazkur holatda sizda mehnat taʼtilini qachon olishga huquqingiz bor, degan savol tugʻiladi.

Amaldagi Mehnat kodeksining 231-moddasiga asosan, "homilador ayollarga va bola tuqqan ayollarga yillik taʼtillar, ularning xohishiga koʻra, tegishli xodimlarning va tugʻish taʼtilidan oldin yoki undan keyin yoxud bolani parvarishlash taʼtilidan keyin beriladi", deyilgan.

Mana shu qoidadan kelib chiqsak, boshlangan navbatdagi ish yilingiz uchun mehnat taʼtilini istasangiz, homiladorlik va tugʻish taʼtili (dekret)dan oldin, istasangiz, undan keyin olishga haqlisiz.

Nuriddin TURSUNOV, viloyat adliya boshqarmasi bosh maslahatchisi.



Bir yilda ikki marta taʼtil kimlarga beriladi?

Xodim bir kalendar yili davomida ikki marta mehnat taʼtiliga chiqishi mumkin. Chunki taʼtil xodimga kalendar yil davomida emas balki ish yili davomida beriladi.

Mehnat kodeksining 225-moddasiga koʻra, ish yili deganda xodimning muayyan ish beruvchida oʻn ikki oyga teng boʻlgan va haqiqatda ish boshlangan sanadan eʼtiboran hisoblab chiqariladigan ish davri tushuniladi.

Masalan, xodim 12.03.2024-dan ish boshladi. Uning ish yili 12.03.2024-dan 11.03.2025-gacha boʻladi. Har yilgi mehnat taʼtili xodimga taʼtil berilayotgan ish yili tugashiga qadar yaʼni 11.03.2025-gacha berilishi kerak. Shu oʻrinda kalendar yilga chalgʻib ketib, xodim 31-dekabrgacha taʼtilga chiqishi kerak, deb xato oʻylamaslik lozim. Yaʼni, xodimni ish yili tugaguniga qadar taʼtilga chiqarish shart ekan.

Misolimizdagi xodim 2025-yil 10-mart kuni taʼtilga chiqdi. Bunda xodim yuqorida keltirib oʻtilgan davr orali-gʻi uchun taʼtilga chiqqan. Demak, xodim 2025-2026-yillar orali-gʻidagi ish yili uchun 2025-yilda yana taʼtil olishi mumkin.

Darvoqe, Mehnat kodeksi 269-moddasi ikkinchi qismining 6-bandiga koʻra, xodim qaysi ish yili hisobiga taʼtil olib boʻlgan boʻlsa, oʻsha yil tugaguniga qadar mehnat shartnomasi bekor qilinganda, taʼtilning ishlab berilmagan kunlari uchun xodimning yozma roziligidan qatʼi nazar, ish haqidan ushlab qolish amalga oshiriladi.

Қирғиз адабиёти бизга 500 минг мисрадан иборат, қарийб ўн асрлик тарихига эга «Манас» эпоси, Мулла Қилич, Тўғалоқ Мўлда, Тўхтагул Сотилғанов, Қосимали Баялинов ва Чингиз Айтматов каби номлар билан яхши таниш. Ана шу адабиёт вакиллари, яъни қардош ва қўшни юрт адиблари Самарқандга келди.

Нурали Қобул:

«Бизга адабиёт туризми ҳам керак»

Вилоят ахборот-кутубхона марказида икки мамлакат ижод-корлари ёш китобхонлар билан учрашди.

Учрашувда Қирғиз Республикаси Ёзувчилар уюшмаси раиси Қанибек Иманалиев, «Жеткинчек» болалар ва ўсмирлар газетасининг бош муҳаррири, ёзувчи, таржимон Абибилла Пазилов ҳамда юртимиздан таниқли ёзувчи Нурали Қобул, Ўзбекистонда хизмат кўрсатган журналист Фармон Тошев ўзбек ва қирғиз халқлари ўртасида дўстлик, маданият, ижтимоий-сиёсий ва адабий алоқалар мустаҳкамланиб бораётганини таъкидладилар.

2019 йилда Ўзбекистон ва Қирғизистон Ёзувчилар уюшмалари ўртасида ҳамкорлик тўғрисида меморандум имзоланган бўлиб,

ушбу ҳужжат асосида бир неча йиллардан бери биргаликда тадбирлар ўтказилиб, адабий лойиҳалар амалга оширилмоқда.

Ёзувчи Нурали Қобул бугун туризм жадал ривожланиб бораётганини қайд этиб, барча соҳаларда мавжуд сайёҳлик нега адабиёт соҳасида йўқлигига эътибор қаратди.

Учрашувда Қирғиз Республикаси Ёзувчилар уюшмаси раиси Қанибек Иманалиевнинг «Қирғизнома» китоби тақдимот қилинди. Нурали Қобул томонидан таржима қилинган мазкур асар қардош қирғиз халқининг урф-одати, одоб-ахлоқ, эътиқод ва аъъаналарини ўзида акс эттирган.

Ф.РЎЗИБОВЕВ.

O‘zbekiston Respublikasining joriy yil 25-martdagi qonuni bilan ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritildi.

Unga muvofiq, Jinoyat kodeksiga binolar va inshootlardan foydalanishga doir ruxsatnoma berish hamda ularni foydalanishga qabul qilib olish qoidalarini buzganlik, shaharsozlik sohasidagi vakolatli davlat organlarining ruxsatsiz obyektlarni qurganlik, qonunchilikni buzgan holda ko‘p kvartirali uylardagi tayanch konstruksiyalarni o‘zgartirganlik va rekonstruksiya qilganlik, shuningdek, binolar va inshootlarni aholi punktlarining tasdiqlangan bosh rejalari, ularni rejalashtirish va qurish loyihalarini buzgan holda loyihalashtirganlik, rekonstruksiya qilganlik va qurganlik uchun javobgarlik yuzaga kelishini

Shaharsozlik qoidalarini buzganlik uchun jinoiy javobgarlik

nazarda tutuvchi o‘zgartirishlar kiritilmoqda. Bunda jinoiy javobgarlik aybdor shaxslar ushbu huquqbu-zarliklar uchun ma‘muriy javobgarlikka tortib bo‘linganidan keyin yuzaga keladi. Odam o‘lishiga yoki boshqa og‘ir oqibatlarga sabab bo‘lgan tarzda shaharsozlik to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganlik uchun alohida jinoiy javobgarlik nazarda tutilmoqda.

Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks esa loyiha tashkilotlarining mualliflik nazoratini amalga oshirish doirasida beriladigan ko‘rsatmalarini buyurtmachilar tomonidan bajar-

maganlik, shuningdek, obyektlarni ekspert tashkilotlarning shaharsozlik hujjatlariga doir ijobiy xulosasisiz qurganlik uchun javobgarlikni belgilovchi normalar bilan to‘ldirilmoqda.

Hujjatda shaharsozlik sohasidagi qoidabuzarliklar uchun solinadigan jarimalar miqdorlarini ko‘paytirish nazarda tutilgan.

Qonun rasmiy e‘lon qilingan kundan e‘tiboran 3 oy o‘tgach, kuchga kiradi.

Alijon ABDUSALOMOV, Samarqand shahar Davlat xizmatlari markazi yetakchi mutaxassisi.

Молия соҳаси билимдони

Атоқли олим, иқтисодиёт фанлари доктори, профессор Жаҳонгир Зайналов 75 ёшга тўлди. Жаҳонгир Расулович ўзининг кўп йиллик самарали фаолияти давомида ўқитувчиликдан кафедра мудири, декан, иқтисослашган илмий кенгашлар аъзосигача бўлган йўлни босиб ўтди. Бир қатор таълим ислохотлари ва илмий лойиҳалар ташаббускори сифатида молия, солиқ ва иқтисодиёт соҳалари учун юқори малакали кадрлар тайёрлашга ҳисса қўшди.



Ж.Зайналов 1971 йилда Самарқанд кооператив институтининг иқтисодиёт факультетини тугатиб, фаолиятини ушбу муассасада бошлади ва бугунги кунгача турли лавозимларда самарали фаолият юритиб келмоқда. Олим 1980 йилларда Г.В.Плеханов номидаги Москва халқ ҳўжалиги институтида таҳсил олди. Сўнгра Россия иқтисодиёт академиясида докторлик диссертациясини ҳимоя қилди. У институтда молия ва кредит кафедраси, молия ва кредит ҳамда банк-молия хизматлари факультетларининг ташкил этилишида бош-қош бўлди.

Бугун домла талабаларга молия, давлат бюджети, молиявий стратегия, солиқлар ва солиққа тортиш, халқаро молиявий муносабатлар, бюджет-солиқ сиёсати, давлат молиясини бошқариш каби фанлардан машғулотлар ўтади. Устоз Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодексини ишлаб чиқишда ҳам жонбозлик кўрсатиб, кўплаб тадқиқот лойиҳаларида иштирок этган. Олимнинг мамлакат молия тизимини ислох қилишдаги фаоллиги ва ташаббускорлиги халқаро миқёсда эътироф этилган.

Профессор Ж.Зайналовнинг 2000 дан ортиқ илмий ва ўқув ишлари АҚШ, Буюк Британия, Германия, Россия, Чехия, Қозоғистон, Озарбайжонда нашр этилган. Унинг “Молиявий стратегия”, “Солиқлар ва солиққа тортиш”, “Халқаро молиявий

муносабатлар”, “Молия бозори” каби дарслик ҳамда ўқув қўлланмалари талабалар ва мутахассисларнинг сеvimли илмий адабиётига айланган.

Домла ўқитган талабалар ва мустақил изланувчилар бир неча бор республика ва халқаро танловлар, олимпиадалар ва илмий форумлар ғолиблари бўлишган. Бугунги кунда олимнинг илмий раҳбарлигида ўнлаб фан номзодлари ва фан докторлари тайёрланган бўлиб, улар нафақат Ўзбекистонда, балки хориж мамлакатларида ҳам меҳнат қилмоқда.

Жаҳонгир Расулович етакчи илмий журналлар таҳририяти аъзоси, халқаро анжуман ва конференцияларнинг фаол иштирокчиси.

У кўп йиллик халол меҳнати учун “Олий таълим аълочиси” (1999), “Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим фидойиси” (2000) нишонлари билан тақдирланган.

Юксак инсоний фазилатлар соҳиби бўлган устозимизни қўтлуғ айёми билан табриқлаймиз. Илмий ва педагогик фаолиятидаги ютуқлари бардавом бўлсин.

Эркин ХЎЖАЕВ, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган иқтисодчи, профессор. Нуриддин ЭРНАЗАРОВ, доцент.

РЕКЛАМА, E'LO'NLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

“SABR MIKROMOLIYA TASHKILOTI” mas’uliyati cheklangan jamiyatining balans hisoboti (2025-yil 1-yanvar holatiga)

KOD	KO'RSATKICHLAR	Ming so'mda
	AKTIVLAR	
10	Kassadagi naqd pullar va boshqa to'lov hujjatlari	13 417
20	Banklarga qo'yilgan depozitlar va boshqa mablag'lar	1 865 906
30	Olinishi lozim bo'lgan hisoblangan foizlar	143 194
40	Sotib olingan debitorlik qarzlari - faktoring, brutto	
41	Minus: faktoring bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi	
42	Faktoring, sof (40 kod - 41 kod)	0
50	Kreditlar (mikrokredit, mikroqarz, iste'mol), brutto	4 019 593
51	Minus: kreditlar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi	43 072
52	Kreditlar, sof (50 kod - 51 kod)	3 976 521
60	Lizing, brutto	0
61	Minus: lizing bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi	0
62	Lizing, sof	0
70	Investitsiyalar, brutto	0
71	Minus: Investitsiyalar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi	0
72	Investitsiyalar, sof	0
80	Asosiy vositalar, sof	560 980
90	Nomoddiy aktivlar, sof	0
100	Boshqa xususiy mulklar	0
101	a. Minus: ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi	0
102	b. Boshqa xususiy mulklar, sof (100 kod-101 kod)	0
110	Boshqa aktivlar	91 889
120	Jami aktivlar (10+20+30+42+52+62+72+80+90+102+110)	6 651 907
	MAJBURIYATLAR VA KAPITAL	
	MAJBURIYATLAR	
210	To'lanishi lozim bo'lgan kreditlar va qarzlar	1 275 000
220	Lizing bo'yicha majburiyatlar	
230	Chiqarilgan obligatsiyalar	
240	To'lanishi lozim bo'lgan foizlar	18 303
250	To'lanishi lozim bo'lgan hisoblangan soliqlar	368 033
260	Muddati uzaytirilgan daromadlar	
270	Boshqa majburiyatlar	401 723
280	Jami majburiyatlar (210+220+230+240+250+260+270)	2 063 059
	KAPITAL	
310	Ustav kapitali	3 345 000
311	a. Aksiyalar - oddiy	0
312	b. Aksiyalar - imtiyozli	0
320	Qo'shilgan kapital	
330	Zaxira kapitali	329 607
331	a. Umumiy zaxira fondi	329 451
332	b. Boshqa zaxira va fondlar	156
340	Taqsimlanmagan foyda	
350	Joriy yil foydasi (zarar)	914 241
360	Jami kapital (310 + 320 + 330 + 340 + 350)	4 588 848
370	Jami majburiyatlar va kapital (280 + 360)	6 651 907

“SABR MIKROMOLIYA TASHKILOTI” mas’uliyati cheklangan jamiyatining moliyaviy natijalari to‘g‘risidagi hisoboti (2025-yil 1-yanvar holatiga)

KOD	KO'RSATKICHLAR	Ming so'mda
	1. FOIZLI DAROMADLAR	
110	Banklardagi depozitlar bo'yicha foizli daromadlar	12 932
120	Jismoniy shaxslarga berilgan kreditlar (mikroqarzlar) bo'yicha foizli daromadlar	2 672 821
130	O'zini o'zi band qilgan shaxslarga berilgan mikrokreditlar bo'yicha foizli daromadlar	0
140	Yakka tartibdagi tadbirkorlarga berilgan kreditlar (mikrokreditlar) bo'yicha foizli daromadlar	0
150	Yuridik shaxslarga berilgan kreditlar (mikrokreditlar) bo'yicha foizli daromadlar	0
160	Lizing bo'yicha foizli daromadlar	0
170	Boshqa foizli daromadlar	0
180	Jami foizli daromadlar (110+120+130+140+150+160+170)	2 685 753
	2. FOIZLI XARAJATLAR	
210	Jalb qilingan qarz mablag'lari bo'yicha foizli xarajatlار	192 971
220	Banklardan olingan kreditlar bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan foizli xarajatlار	123 288
230	Boshqa kreditorlarga to'lanishi lozim bo'lgan foizli xarajatlار	0
240	Chiqarilgan obligatsiyalar bo'yicha foizli xarajatlار	0
250	Lizing bo'yicha foizli xarajatlار	0
260	Boshqa foizli xarajatlار	
270	Jami foizli xarajatlار (210+220+230+240+250+260)	316 259
310	3. KREDIT VA LIZINGLAR BO'YICHA KO'RILISHI MUMKIN BO'LGAN ZARARLARNI BAHOLASHGACHA BO'LGAN SOF FOIZLI DAROMADLAR (180-270)	2 369 494
320	Minus: kredit va lizinglar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash	142 030
330	Kredit va lizinglar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlار baholangandan so'ng sof foizli daromadlar (310-320)	2 227 464
	4. FOIZSIZ DAROMADLAR	
410	Kafolatlار va kafilliklar bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirishda ko'rsatilgan xizmatlar uchun olingan daromadlar	0
420	Faktoring xizmatlari bo'yicha olingan daromadlar	0
430	Xizmatlar va boshqa vositachilikdan olingan daromadlar	10 930
440	Xorijiy valyuta kursi o'zgarishi natijasida olingan foyda	
450	Investitsiyalardan olingan foyda va dividendlar	
460	Boshqa foizsiz daromadlar	7 013 224
470	Jami foizsiz daromadlar (410+420+430+440+450+460)	7 024 154
	5. FOIZSIZ XARAJATLAR	
510	Ko'rsatilgan xizmatlar va vositachilik xarajatlari	22 600
520	Xorijiy valyuta kursi o'zgarishi natijasida ko'rilgan zararlار	
530	Investitsiyalardan ko'rilgan zararlار	
540	Boshqa foizsiz xarajatlار	1 721 807
550	Jami foizsiz xarajatlار (510+520+530+540)	1 744 407
600	6. OPERATSION XARAJATLARGACHA SOF FOYDA (330+470-550)	7 507 211
	7. OPERATSION XARAJATLAR	
710	Xodimlar ish haqi va ular uchun qilingan boshqa xarajatlار	4 579 851
720	Ijara va ta'minot xarajatlari	218 501
730	Xizmat safari va transport xarajatlari	74 089
740	Ma'muriy xarajatlar	27 599
750	Reprezentatsiya va xayriya	6 922
760	Eskirish xarajatlari	183 126
770	Sug'urta, soliқ va boshqa xarajatlar	83 396
780	Jami operatsion xarajatlar (710+720+730+740+750+760+770)	5 173 484
800	8. KREDIT VA LIZINGLAR BILAN BOG'LIQ BO'LMAGAN KO'RILISHI MUMKIN BO'LGAN ZARARLARNI BAHOLASH	0
900	9. FOYDA SOLIG'I VA BOSHQA TUZATISHLARGACHA BO'LGAN SOF FOYDA (600-780-800)	2 333 727
	10. Foyda solig'i	
1000	Foyda solig'ini baholash	380 203
1100	11. TUZATISHLARGACHA BO'LGAN FOYDA (900-1000)	1 953 524
1110	Foydagacha bo'lgan tuzatishlar, sof *	-1 039 283
1200	12. SOF FOYDA (ZARAR) (1100+1110)	914 241

Izoh: * joriy yil foydasidan hisoblangan dividendlar.

RAHMAT SIZGA, YAXSHILARI!

Salomatligimni tiklash maqsadida Toshkent viloyatidagi «Chotqol» sanatoriyisida dam olib, davolanib keldim. Sihatqoh zamonaviy usulda ta'mirlangan, davolanuvchilar uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Ularning o'z kasbiga mehri tufayli biz davolanuvchilar salomatligimizni anchagina mustahkamlab oldik. Ayniqsa, shirin muomala va kattayu kichikka bo'lgan hurmat bizda katta taassurot qoldirdi. Sanatoriy direktori Farrux Toshxodjayev, bosh shifokor Dildora Ablyamitova, vrach Kamila Toirova, Lola Asxo'jayeva, katta hamshira Gulzoda Nodirova, hamshiralar Dildora Mahkamboyeva, Durdona Hayitmetova, Gulnoz Ilyosova va boshqa xodimlarining mehnatidan juda minnatdorman. Ularni yaqinlashib kelayotgan 9 may – Xotira va qadrlash kuni bilan samimiy qutlab, el salomatligini tiklashdagi xizmatlarida omad tilayman.

Mo'mina GULYAMOVA, Samarqand shahri.

DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Azizov Sherzod Ilhomovich notarial idorasida marhum Shaxmirzayeva Maviyudaga (2024-yil 15-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Azizov Sherzod Ilhomovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasida marhum Sattarov Sobirdjonga (2011-yil 5-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qo'shatov Akbar Rustamovich notarial idorasida marhum Ruzimuratov Raimqul Xaitovichga (2024-yil 4-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Qo'shatov Akbar Rustamovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Spitamen shohko'chasi, 157-uy.

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Abdullayev Nodir Jamoliddinovich notarial idorasida marhum Kadirov Ravshan Xudoyberdiyevichga (2016-yil 23-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Abdullaev Nodir Jamoliddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand tumani U.Samiyev ko'chasi, 1-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Muhammaddiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasida marhum Tuychiyeva Gulavarga (2019-yil 19-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqloл ko'chasi, 73-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Muhammaddiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasida marhum Tuychiyev Quraqboyga (2023-yil 9-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqloл ko'chasi, 73-uy.

Toyloq tumanida xizmat safaridagi Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasida marhum Karimov Olim Namazovichga (2013-yil 16-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Toyloq tumani Beruniy ko'chasi.

Toyloq tumanida xizmat safaridagi Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasida marhum Bobonazarov Umurzok Abduraufovichga (2023-yil 7-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Toyloq tumani Beruniy ko'chasi.

